BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY ADAPTATSIYASIDA MOTIVATSION BARQARORLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tajiboyev Asqat Alisher o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida motivatsion barqarorlikning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Motivatsion barqarorlik tushunchasining mohiyati, tarkibiy komponentlari (kognitiv, emotsional-irodaviy, faoliyat-baholash komponentlari) va uning kasbiy moslashuv jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Talaba-pedagoglarda motivatsion barqarorlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki (shaxsiy qadriyatlar tizimi, kasbiy identifikatsiya, o‘z-o‘ziga ishonch) va tashqi (ta’lim muhiti, pedagogik amaliyot sharoitlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash) omillar tizimli tarzda tavsiflanadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning motivatsion barqarorligini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: motivatsion barqarorlik, kasbiy adaptatsiya, bo‘lajak pedagog, kasbiy motivatsiya, psixologik moslashuv, kasbiy identifikatsiya, pedagogik faoliyat.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the psychological characteristics of motivational stability in the process of professional adaptation of future teachers. The essence of the concept of motivational stability, its structural components (cognitive, emotional-volitional, activity-evaluative), and its influence on the process of professional adjustment are examined. Internal factors (the system of personal values, professional identification, self-confidence) and external factors (the educational environment, conditions of pedagogical practice, social

support) that affect the formation of motivational stability among student teachers are systematically described. In addition, psychological and pedagogical approaches aimed at developing the motivational stability of future teachers in higher education institutions are proposed.

Key words: motivational stability, professional adaptation, future teacher, professional motivation, psychological adjustment, professional identification, pedagogical activity.

Аннотация. В данной статье дан научно-теоретический анализ психологических особенностей мотивационной устойчивости в процессе профессиональной адаптации будущих педагогов. Рассматриваются сущность понятия мотивационной устойчивости, её структурные компоненты (когнитивный, эмоционально-волевой, деятельностно-оценочный) и её влияние на процесс профессионального приспособления. Систематически охарактеризованы внутренние (система личностных ценностей, профессиональная идентификация, уверенность в себе) и внешние (образовательная среда, условия педагогической практики, социальная поддержка) факторы, влияющие на формирование мотивационной устойчивости у студентов-педагогов. Также предложены психолого-педагогические подходы, направленные на развитие мотивационной устойчивости будущих педагогов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: мотивационная устойчивость, профессиональная адаптация, будущий педагог, профессиональная мотивация, психологическое приспособление, профессиональная идентификация, педагогическая деятельность.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bo‘lajak

o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi masalasiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi[1]. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi nafaqat chuqur bilim va metodik mahoratga, balki barqaror kasbiy motivatsiyaga, ya’ni o‘z faoliyatini ongli ravishda tanlash, unda davomiy ishlashga ichki tayyorlikka ega bo‘lishi lozim. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pedagogika oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan yosh mutaxassislarning bir qismi dastlabki ish yillaridayoq kasbdan sovib qolish, faoliyatdan qoniqmaslik, hatto kasbni tark etish kabi salbiy holatlarga duch keladi. Bunday holatlarning asosiy sabablaridan biri – talabalik davridayoq shakllanishi lozim bo‘lgan motivatsion barqarorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Kasbiy adaptatsiya – shaxsning yangi kasbiy muhit talablariga moslashish, o‘z imkoniyatlarini ushbu muhitda ro‘yobga chiqarish jarayoni bo‘lib, u ko‘p jihatdan shaxsning motivatsion-qadriyat sohasi bilan bog‘liqdir. Motivatsion barqarorlik esa shaxsning qiyinchiliklarga, vaziyat o‘zgarishlariga, kasbiy stress omillariga qaramasdan, faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatini va maqsadga intilishini saqlab qolish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda motivatsion barqarorlikning psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, uning kasbiy adaptatsiya jarayonidagi o‘rnini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptatsiyasida motivatsion barqarorlikning psixologik mohiyati, tarkibiy tuzilishi va uni shakllantiruvchi omillarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi

X. Xekxauzen motivatsiyani shaxsning muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochishga yo‘naltirilgan faoliyati bilan bog‘laydi. Uning yondashuvida motivatsion jarayon shaxsning vaziyatni qanday baholashi, kutilayotgan natijaning ahamiyati va muvaffaqiyatga erishish ehtimoli bilan uzviy aloqador [2].

Ushbu yondashuv bo‘lajak pedagoglarning adaptatsiyasi uchun ham muhimdir. Chunki kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida talaba yoki yosh mutaxassis o‘zining pedagogik imkoniyatlarini baholaydi, faoliyat natijasini oldindan tasavvur qiladi va muvaffaqiyatga erishish ehtimoliga qarab o‘z faolligini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak pedagogning kasbiy adaptatsiyasi faqat yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni emas, balki uning o‘z kasbiy imkoniyatlarini qayta baholashi va kasbiy maqsadlarini aniqlashtirishi bilan kechadigan psixologik jarayon sifatida qaralishi lozim. Agar talaba o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yuqori baholasa, qiyinchiliklarni rivojlanish vositasi sifatida qabul qilishi va faoliyatga nisbatan barqaror motivatsiyani namoyon etishi ehtimoli ortadi.

Rus psixologiya maktabida A.N. Leontyev faoliyat va motiv o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tadqiq etib, motivning faoliyatga ma’no beruvchi funksiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Uning faoliyat nazariyasida faoliyat ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lib, motiv faoliyatning yo‘nalishini belgilaydi va unga shaxsiy ma’no beradi [3]. Avvalambor, mazkur nazariy qarashlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini o‘rganishda metodologik jihatdan muhimdir.

Bizningcha, A.N. Leontyevning yondashuvi asosida pedagogik kasbni tanlashning tashqi sabablarini kasbiy motivatsiyaning yakuniy mezoni sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Masalan, oliy ta’limga kirish, diplom olish, ishga ega bo‘lish yoki moddiy barqarorlikka erishish kabi omillar dastlabki tashqi motivlar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq pedagogik faoliyat jarayonida shaxs o‘z faoliyatining ijtimoiy va shaxsiy ma’nosini anglay boshlagan sari motivatsiyaning mazmuni ham o‘zgaradi. Natijada “pedagog bo‘lish kerak” degan tashqi talab asta-sekin “men pedagog bo‘lishni xohlayman va bu faoliyat men uchun mazmunli” degan ichki pozitsiyaga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, bo‘lajak pedagogning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida motivning ma’no hosil qiluvchi funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy faoliyat shaxs

uchun qanchalik mazmunli bo‘lsa, uning kasbiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga tayyorligi ham shunchalik yuqori bo‘lishi mumkin.

L.I. Bojovich shaxsning motivatsion sohasi uning yosh va individual rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq holda shakllanishini ta’kidlaydi [4]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, uning yondashuvida motivatsion soha alohida motivlarning oddiy yig‘indisi emas, balki shaxsning ehtiyojlari, intilishlari, maqsadlari va munosabatlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab tizim sifatida qaraladi.

Mazkur fikr bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini o‘rganishda ayniqsa muhimdir. Chunki oliy ta’lim davrida talabaning kasbiy motivlari hali yakuniy shakllangan tizim sifatida namoyon bo‘lmasligi mumkin. Ta’lim jarayoni, pedagogik amaliyot, o‘qituvchilar bilan muloqot, kasbiy tajriba va real pedagogik vaziyatlar ta’sirida talabaning kasb haqidagi tasavvurlari o‘zgaradi. Shu sababli kasbiy motivatsiyani statik hodisa emas, balki rivojlanib boruvchi psixologik tizim sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali izohlash mumkin: ehtiyojlar, kasbiy qadriyatlar, ichki va tashqi motivlar, kasbiy maqsadlar, muvaffaqiyatga intilish, o‘ziga bo‘lgan ishonch, kasbiy o‘zini anglash va faoliyatga beriladigan shaxsiy ma’no.

Ushbu komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir bo‘lajak pedagogning adaptatsiya jarayonida alohida ahamiyatga ega. Masalan, kasbiy faoliyatga ichki qiziqish yuqori bo‘lgan talaba pedagogik amaliyotdagi qiyinchiliklarni kasbiy rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishi mumkin. Aksincha, faoliyatga asosan tashqi rag‘batlar asosida kirishgan shaxs uchun dastlabki qiyinchiliklar motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

O‘zbek psixologiya maktabi vakillarining ilmiy qarashlari ham mazkur masalani

shaxsning psixologik rivojlanishi, faoliyatga munosabati, individual-psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. E.G‘. G‘oziyev psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlarini faoliyat hamda ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi [5]. Bu yondashuvdan kelib chiqib, bo‘lajak pedagogning kasbiy motivatsiyasi uning individual xususiyatlaridan tashqari, ta’lim muhiti va ijtimoiy tajribasi bilan ham shakllanishini qayd etish mumkin.

Motivatsiya psixologiyasi muammosi jahon psixologiya fanida uzoq tarixga ega bo‘lib, u A. Maslou, D. Mak-Klelland, X. Xekxauzen kabi xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida faoliyat samaradorligi va shaxs ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yoritilgan. Rus psixologiya maktabida A.N. Leontyev faoliyat va motiv o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ya’ni “ma’no hosil qiluvchi motiv” tushunchasini ishlab chiqqan bo‘lsa, L.I. Bojovich shaxsning motivatsion sohasi yosh davrlari kesimida rivojlanishini tadqiq etgan. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini ham statik va o‘zgarmas psixologik hodisa sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Talabaning kasb haqidagi tasavvurlari, o‘qituvchilik kasbiga munosabati va kasbiy maqsadlari ta’lim jarayonidagi tajriba, pedagogik amaliyot va ijtimoiy munosabatlar ta’sirida o‘zgarib borishi mumkin. Shuning uchun adaptatsiya davri kasbiy motivlarning shakllanishi, aniqlashishi va qayta tashkil topishi uchun muhim psixologik bosqich sifatida qaralishi lozim.E.P. Ilin o‘zining motivatsiya va motivlar psixologiyasiga bag‘ishlangan ishlarida motivatsion barqarorlikni shaxsning irodaviy-emotsional sifatlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilgan [6]. E.P. Ilyinning qarashlari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptatsiyasini tadqiq etishda motivatsiyaning barqarorligi masalasiga e’tibor qaratish imkonini beradi. Talaba pedagogik faoliyatga dastlabki kirish davrida turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda kasbiy motivning mavjudligi bilan bir qatorda, uning davomiyligi va qiyinchiliklarga nisbatan barqarorligi ham muhimdir. Shu sababli

bo‘lajak pedagoglarda motivatsion barqarorlikni kasbiy adaptatsiyaning muhim psixologik resurslaridan biri sifatida tadqiq qilish mumkin.

Mazkur yondashuv bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kasbiy motivatsiyani shakllantirishni kasbiy qobiliyatlar va pedagogik faoliyatga tayyorgarlikdan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Talaba o‘zining pedagogik imkoniyatlarini anglab borishi, kasbiy vazifalarni bajarishda muvaffaqiyatga erishishi va o‘z kompetensiyalarini rivojlantirishi uning kasbga bo‘lgan ichki munosabatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

V.A. Slastyonin va V.P. Kashirin pedagogika va psixologiya masalalarini tahlil qilishda shaxsning rivojlanishi, ta’lim-tarbiya jarayoni va pedagogik faoliyatning psixologik jihatlariga e’tibor qaratadilar [7]. Bu yondashuv bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishini faqat maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayoni sifatida emas, balki shaxsiy sifatlar, qadriyatlar, munosabatlar va faoliyatga tayyorlikning shakllanish jarayoni sifatida qarash imkonini beradi.. Kasbiy pedagogika psixologiyasi sohasida N.V. Kuzmina, V.A. Slastyonin, A.K. Markova kabi olimlar o‘qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishi, pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik va kasbiy motivatsiya masalalarini chuqur o‘rgangan. E.F. Zeyer o‘zining kasbiy rivojlanish psixologiyasiga oid tadqiqotlarida kasbiy adaptatsiyani shaxsning kasbiy shakllanish bosqichlaridan biri sifatida ko‘rib chiqqan va bu jarayonda motivatsion barqarorlikning muhim rolini ta’kidlagan[8]. Avvalambor, E.F. Zeyer yondashuvida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini shaxsning umumiy psixologik tuzilmasidan ajratmasdan tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbek psixologlari va pedagoglari orasida M.G. Davletshin, G‘.B. Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev kabi olimlarning ishlarida shaxs faoliyati va kasbiy shakllanishining psixologik asoslari yoritilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning o‘quv-kasbiy motivatsiyasini shakllantiruvchi psixologik omillar, kasbiy moslashuvning tashkiliy-

pedagogik shart-sharoitlari o‘rganilmoqda. Shunga qaramay, motivatsion barqarorlik tushunchasining mustaqil psixologik kategoriya sifatida, aynan kasbiy adaptatsiya kontekstida kompleks tahlili hozirgacha yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Motivatsion barqarorlik tushunchasi va uning psixologik mohiyati

Motivatsion barqarorlik – shaxsning tashqi va ichki qiyinchiliklarga, vaziyat o‘zgarishlariga, muvaqqat muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, o‘z faoliyatining maqsad va motivlarini izchil saqlab qolish, ularga mos ravishda harakat qilishni davom ettirish qobiliyatidir. Ushbu hodisa shaxsning irodaviy, emotsional va kognitiv sohalari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladi va faqat “motivatsiyaning kuchi” bilangina emas, balki uning vaqt davomida barqarorligi, izchilligi va vaziyatlarga qarshilik ko‘rsata olish qobiliyati bilan ham tavsiflanadi.

Bo‘lajak pedagog uchun motivatsion barqarorlik quyidagi uchta asosiy komponentdan iborat tuzilmani tashkil etadi:

1) Kognitiv komponent – kasb mohiyati, uning ijtimoiy ahamiyati, o‘z kasbiy “Men”i haqidagi ongli tasavvurlar, kasbiy maqsadlarning aniq va real ekanligini anglash;

2) Emotsional-irodaviy komponent – kasbga nisbatan barqaror ijobiy munosabat, qiyinchiliklarga bardosh berish, stress vaziyatlarida o‘zini boshqara olish, muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng ham faoliyatni davom ettirishga ichki tayyorlik;

3) Faoliyat-baholash komponenti – o‘z faoliyati natijalarini adekvat baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini takomillashtirishga intilish.

Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak pedagogning kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror, ongli va mas’uliyatli munosabatini shakllantiradi. Aksincha, ulardan birortasining yetarli darajada rivojlanmaganligi motivatsion beqarorlikka, ya’ni kasbiy faoliyatga qiziqishning pasayishi, tez charchash, kasbdan norozilik kabi holatlarga olib kelishi mumkin.

Kasbiy adaptatsiya jarayonida motivatsion barqarorlikning o‘rni

Kasbiy adaptatsiya – shaxsning kasbiy muhitga, uning normalari, talablari va munosabatlar tizimiga moslashish jarayoni bo‘lib, u odatda uchta bosqichda kechadi: dastlabki tanishuv va moslashish bosqichi, faol o‘zlashtirish bosqichi va barqaror kasbiy faoliyat bosqichi. Har bir bosqichda motivatsion barqarorlik turlicha namoyon bo‘ladi va turlicha ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki bosqichda, ya’ni talaba-pedagog birinchi marta pedagogik amaliyotga yoki mustaqil faoliyatga kirishganda, u yangi ijtimoiy rol, yangi talablar va kutilmagan qiyinchiliklar bilan to‘qnash keladi. Aynan shu bosqichda motivatsion barqarorlik “himoya mexanizmi” vazifasini bajaradi – u shaxsni dastlabki qiyinchiliklar ta’sirida kasbdan voz kechishdan saqlaydi va faoliyatni davom ettirishga undaydi. Ikkinchi bosqichda motivatsion barqarorlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarni faol o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Uchinchi, barqaror faoliyat bosqichida esa u kasbiy mahoratning yanada rivojlanishi, ijodiy yondashuvning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, motivatsion barqarorlik kasbiy adaptatsiyaning barcha bosqichlarida kechuvchi, jarayonni tartibga soluvchi va yo‘naltiruvchi psixologik omil sifatida chiqadi. Uning yetarli darajada shakllanmaganligi kasbiy adaptatsiyaning cho‘zilib ketishiga, ba’zi hollarda esa dezadaptatsiyaga, ya’ni shaxsning kasbiy muhitga moslasha olmasligiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion barqarorlikni shakllantiruvchi psixologik omillar

Bo‘lajak pedagoglarda motivatsion barqarorlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: ichki (subyektiv) va tashqi (obyektiv) omillar.

Ichki omillar qatoriga quyidagilar kiradi: shaxsning qadriyatlar tizimida pedagogik faoliyatning tutgan o‘rni; kasbiy identifikatsiya darajasi, ya’ni shaxsning o‘zini “pedagog” sifatida qay darajada anglashi; o‘z-o‘ziga ishonch va o‘z kasbiy

imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch (o‘z-o‘zini baholash); irodaviy sifatlar, xususan qat’iyatlilik va sabr-toqat; hissiy barqarorlik va stressga chidamlilik darajasi.

Tashqi omillar qatoriga esa quyidagilar kiritiladi: oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya muhitining sifati, o‘qituvchilar bilan professional-shaxsiy munosabatlar; pedagogik amaliyotning tashkil etilish darajasi va unda talabaga ko‘rsatiladigan metodik yordam; ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jumladan oila, kursdoshlar va murabbiylar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash; jamiyatda o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy nufuzi va moddiy-ma’naviy rag‘batlantirish tizimi.

Ushbu ikki guruh omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi: qulay tashqi sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda ham, agar shaxsning ichki motivatsion asosi (qadriyatlar, kasbiy identifikatsiya) yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, motivatsion barqarorlikni ta’minlash qiyinlashadi. Shu bilan birga, kuchli ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan talaba ham noqulay tashqi sharoitlarda (masalan, metodik yordamning yetishmasligi) motivatsion pasayishga duch kelishi mumkin. Demak, motivatsion barqarorlikni ta’minlash uchun ichki va tashqi omillarning kompleks, uyg‘un ta’sirini tashkil etish zarur.

Motivatsion barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida bo‘lajak pedagoglarda motivatsion barqarorlikni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

– o‘quv jarayoniga kasbiy yo‘naltirilgan treninglar va psixologik mashg‘ulotlarni kiritish, ularda talabalarning o‘z-o‘zini anglashi, kasbiy “Men” kontseptsiyasini shakllantirish ustida ishlash;

– pedagogik amaliyotni bosqichma-bosqich, talabaning imkoniyatlariga mos ravishda murakkablashtirib borish, har bir bosqichda malakali murabbiylik (mentorlik) tizimini yo‘lga qo‘yish;

– talabalarda kasbiy stressni boshqarish, o‘z-o‘zini emotsional tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik maslahat va treninglar tashkil etish;

– talabalarning muvaffaqiyatlarini muntazam qayd etib borish, ijobiy kasbiy tajribani mustahkamlash orqali ichki motivatsiyani rag‘batlantirish;

– kurs davomida kasbiy identifikatsiya darajasini diagnostika qilib borish va aniqlangan muammolarga qarab individual psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish.

Ushbu yondashuvlarning izchil va tizimli tatbiq etilishi bo‘lajak pedagoglarda nafaqat o‘quv jarayonida, balki kelgusi mustaqil kasbiy faoliyatda ham barqaror motivatsion holatni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy tahlil natijasida shu narsa aniqlandiki, motivatsion barqarorlik bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptatsiya jarayonini muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. U kognitiv, emotsional-irodaviy va faoliyat-baholash komponentlaridan tashkil topgan yaxlit psixologik tuzilma bo‘lib, kasbiy adaptatsiyaning barcha bosqichlarida shaxsni qiyinchiliklarga bardosh berishga, faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni saqlab qolishga undaydi.

Motivatsion barqarorlikning shakllanishi ichki (qadriyatlar tizimi, kasbiy identifikatsiya, o‘z-o‘ziga ishonch) va tashqi (ta’lim muhiti, amaliyot sharoitlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash) omillarning uyg‘un ta’siri ostida kechadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy-metodik bilim berish, balki ularning motivatsion-qadriyat sohasini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlarni tizimli tashkil etish zarur. Bu, o‘z navbatida, yosh pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashishi, kasbda barqaror qolishi va yuksak kasbiy natijalarga erishishi uchun ishonchli psixologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. – Toshkent, 2023.

2. Xekxauzen X. Motivatsiya i deyatelnost. – Sankt-Peterburg: Piter, 2003. – 860 b.

3. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 b.

4. Bojovich L.I. Lichnost i yeyo formirovaniye v detskom vozraste. – Sankt-Peterburg: Piter, 2008. – 400 b.

5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010. – 336 b.

6. Ilyin Ye.P. Motivatsiya i motivi. – Sankt-Peterburg: Piter, 2011. – 512 b.

7. Slastyonin V.A., Kashirin V.P. Psixologiya i pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2010. 250-256 betlar.

8. Zeyer E.F. Psixologiya professionalnogo razvitiya. – Moskva: Akademiya, 2009. – 240 b.